
Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 104 364,5 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 10,5 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,9 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg‘ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd so‘m		*O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da*
	2025- yil	*2026- yil*	
I. YAHM, jami	**88 643,0**	**104 364,5**	**110,5**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	87 005,5	102 240,3	110,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 637,5	2 124,2	113,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**87 005,5**	**102 240,3**	**110,4**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**21 528,6**	**23 616,1**	**103,9**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**23 779,7**	**28 962,2**	**114,3**
sanoat	16 329,4	19 211,1	108,5
qurilish	7 450,3	9 751,1	126,9
xizmatlar	**41 697,2**	**49 662,0**	**111,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	16 498,3	20 167,7	114,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 660,2	7 130,7	121,2
boshqa xizmat tarmoqlari	19 538,7	22 363,6	106,1


Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 24 471,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 8,5 % ga yuqoridir.


2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)





2026- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi


(jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	*2026- yil*
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,2	98,0
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	2,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**24,7**	**23,1**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**27,4**	**28,3**
sanoat	18,8	18,8
qurilish	8,6	9,5
xizmatlar	**47,9**	**48,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	19,0	19,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	7,0
boshqa xizmat tarmoqlari	22,4	21,9

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 23,1 % ni, sanoat tarmog‘i 18,8 % ni, qurilish 9,5 % ni va xizmatlar sohasi 48,6 % ni tashkil qildi.

yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*




YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,9 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 2,3 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,6 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 2,3 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 2,0 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 5,5 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 4,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.) ga ko‘paydi.


2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 23,1 %), sanoatda – 108,5 % (18,8 %), qurilishda – 126,9 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 111,6 % ni (48,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 114,9 % (19,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,2 % (7,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,1 % dan (21,9 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 108,4 % va xizmatlarda – 106,7 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

	2025- y	2026- y
YAHM	108,6 %	106,6 %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	103,8 %	105,6 %
Sanoat	109,0 %	108,4 %
Qurilish	102,8 %	103,2 %
Xizmatlar	111,5 %	106,7 %

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 78 078,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida – 66 633,3 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 76,4 % ni (2025-yilning yanvar-sentabr oylarida – 76,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)



	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, % da
2025- yil	66 633,3	76,6 %
2026- yil	78 078,8	76,4 %

